



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 271-279 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### FARMATSEVTIKA SANOATI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH MEZONLARI



**Yadgarov Akram Akbarovich**

TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrası prof.v.b. i.f.d. (DSc)

E-mail: [ayadgarov@tsue.uz](mailto:ayadgarov@tsue.uz)

**Abdiyeva Flora Botir qizi**

TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrası assistenti

E-mail: [floraabdieva07@gmail.com](mailto:floraabdieva07@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada farmatsevtika sanoatida raqobatbardoshlikning ko'p qirrali tomonlari ko'rib chiqilgan bo'lib, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarining raqobatbardosh holatini baholashning asosiy mezonlarini aniqlashga qaratilgan. Bu farmatsevtika sanoatida raqobatbardoshlikka ta'sir qiluvchi omillar, shu jumladan innovatsiyalar, mahsulot sifati, bozorga kirish, moliyaviy ko'rsatkichlar, strategik sheriklik va GxP amaliyotlari haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Farmatsevtika sanoati, raqobatbardoshlikni baholash, tadqiqot va innovatsiyalarga investitsiya, moliyaviy ko'rsatkichlar, GxP amaliyoti

#### 1. Kirish

Farmatsevtika sanoati global sog'liqni saqlash, innovatsiyalarni rivojlantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish va bemorlarning natijalarini yaxshilashda birinchi o'rinda turadi. Yangi terapiya, diagnostika va davolash usullariga tobora o'sib borayotgan talab bilan farmatsevtika korxonalari tezkor texnologik yutuqlar, qat'iy tartibga solish talablari va o'zgaruvchan bozor dinamikasi bilan ajralib turadigan shiddatli raqobatbardosh landshaftda ishlaydi. Ushbu dinamik muhitda farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini saqlab qolish va oshirish qobiliyati ularning uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqarorligi uchun juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son farmonining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"ga bag'ishlangan 3-ustuvor yo'nalishining 22-maqсадida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" vazifalari kiritilgan [1].

So'ngi yillarda davlat tomonidan farmatsevtika sanoatining rivojlanishiga va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari qonun va qarorlarda o'z aksini topmoqda. Shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasidan aholi salomatligini

ta'minlash bilan bog'liq 9 ta ustuvor maqsad joy olgan bo'lib bularning barchasi dori-darmonlar bilan chambarchas bog'liq.

## 2. Adabiyotlar sharhi

Klassik, neoklassik va zamonaviy raqobat nazariyalari iqtisodiy fikr rivojlanishining turli davrlarga xos bosqichlarini ifodalaydi. Har bir bosqich avvalgisining g'oyalari asoslanadi va ba'zan ularga qarshi chiqadi. Zamonaviy raqobat nazariyalari bugungi murakkab va o'zaro bog'liq dunyoda raqobatni yanada nozikroq tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari ko'plab iqtisodchi olimlar raqobat tushunchasiga o'z yondashuvlarini bayon etgan bo'lib, quyida ba'zilar keltirilgan.

Iqtisodchi olimlardan B.V.Sorvirov va A.M.Baranovning fikriga ko'ra, raqobat milliy va jahon iqtisodiyotining yanada samarali rivojlanishini rag'batlantiruvchi kuchdir deya o'z fikrlarini bayon etgan [2].

Darhaqiqat, raqobat iqtisodiyotdagi innovatsiyalar, daromad va samaradorlikka undovchi kuchdir. Bu korxonalarni o'z mahsulotlarini va xizmatlarini yaxshilashga, xarajatlarni kamaytirishga va bozorning katta qismini egallash uchun iqtisodiy hatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydi. Bu esa mos ravishda korxonalarining tadqiqot va ishlanmalariga sarmoya kiritishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonlarining yangi va samarali usullarini topishi uchun rag'bat yaratadi.

"Raqobat" tushunchasi mazmunini tadqiq qilish turli mualliflar tomonidan taklif qilingan ta'riflar asosida raqobatning ko'p jihatlaridan faqat ma'lum tomonini tavsiflaydi. Bu esa, mualliflarning har biri o'z tadqiqot sohasidagi raqobatni tavsiflaydi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Avstriyalik iqtisodchi va siyosiy faylasuf Fridrix Avgust fon Xayek raqobatni yanada kengroq ko'rib chiqdi va uni "Kashfiyot protsedurasi" deb tushundi [3].

Shubhasiz, korxonalar raqobat jarayonida unga ta'sir etuvchi omillarni kashf etib boradilar va kelajakda korxonani takomillashtirish jarayonida ushbu omillarni hisobga oladilar.

R. Fathutdinov raqobatni boshqaruv nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi hamda qonunchilik doirasida yoki tabiiy sharoitda obyektiv yoki subyektiv ehtiyojlarni qondirish uchun raqobatchilarga qarshi kurashda g'alaba qozonish yoki boshqa maqsadlarga erishish uchun subyektni raqobatdosh ustunliklari bilan boshqarish jarayoni sifatida izohlaydi [4].

R. Fathutdinov taklif qilganidek, raqobatchilarga qarshi kurashda g'alaba qozonish yoki boshqa maqsadlarga erishish uchun raqobatdosh ustunlikka ega bo'lgan subyektni boshqarish jarayoni sifatida raqobatni talqin qilish raqobatning boshqaruv nuqtai-nazariga mos keladi.

## 3. Tahlil va natijalar

O'zbekiston farmatsevtika bozorida bir necha o'n yillik korxonalardan biri S.Q.Islombekov nomidagi "O'zkimyofarm" aksiyadorlik jamiyati va "Samarqand dori-darmon" aksiyadorlik jamiyatining raqobatbardoshlik darajalarini bozor ulushi, yalpi foyda marjasi, investitsiyalarning rentabellik darajasi, korxonaning operatsion samaradorligi va korxonaning rentabellik darajasi ko'rsatkichlariga ko'ra bir-biriga solishtirish orqali baholaymiz. Avvalo, S.Q.Islombekov nomidagi

“O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyati va “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatining 2017-2022-yillardagi ko‘rsatkichlari tahliliga e‘tibor qaratamiz.

1-jadval.

**“Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatining 2017-2022-yillardagi holati  
(mln so‘mda)**

	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami	721 993,00	2 674 993,00	2 674 993,00	2 674 993,00	2 674 993,00	11026104,00
Shundan xorijiy investitsiyalar	-	-	-	-	-	-
Kapital qo‘yilmalar	391 687,00	40 468,00	49 541,00	44 690,00	27 118,00	27 118,00
O‘rnatish uchun uskunalar	-	-	-	-	-	-
Tovar-moddiy zaxiralar, jami	12871124,00	16323548,00	15770406,00	17060139,00	22399603,00	2109427,00
Mahsulotni sotishdan olingan sof daromad	52180521,00	48335261,00	30200990,00	34001193,00	39239919,00	45980223,00
Yalpi foyda	4 939 917,00	5 289 223,00	3 483 366,00	3 927 775,00	5 539 194,00	6517 602,00
Sof foyda	1 127 944,00	221 958,00	89 780,00	41 093,60	- 1399837,00	553 612,00
Sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi	47240604,00	43046038,00	26717624,00	30073418,00	33700725,00	39462621,00

“Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatli investitsiyalar dinamikasi 2018-yildan 2021-yilgacha bir maromda bo‘lib, 2022-yilda 4 barobar o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Bunga mos ravishda Mahsulotni sotishdan olingan sof daromad 2022-yilga kelib, 2021-yilga nisbatan 1,17 barobarga o‘shish kuzatilgan, sotilgan mahsulotlar tannarxida ham 2017-yildan so‘ng pasayish yuz bergan bo‘lishiga qaramay, 2022-yilda o‘shish dinamikasi tiklangan. Korxonada xorijiy investitsiyalar 2017-2022-yillarda kiritilmagani ham daromadning pasayishiga olib kelgan.

## 2-jadval.

## S.Q. Islombekov nomidagi "O'zkimyofarm" aksiyadorlik jamiyatining 2017-2022-yillardagi holati (mln so'mda)

	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami	546 731,00	20 883,00	20 883,00	20 883,00	7 080 848,00	7 792 183,00
Shundan xorijiy investitsiya	19488,00	-	-	-	-	-
Kapital qo'yilmalar	1381369,00	257 857,00	349 901,00	397 138,00	-	-
O'rnatish uchun uskunalari	-	316 112,00	456 466,00	486 593,00	522 114,00	522 114,00
Tovar-moddiy zaxiralar, jami	8600874,00	19109319,00	17187819,00	12346360,00	6470557,00	2496616,00
Mahsulotni sotishdan olingan sof daromad	28 886 052,00	31 591 552,00	12218248,00	11214020,00	12562716,00	5700778,00
Yalpi foyda	11210971,00	11992680,00	1836967,00	842 201,00	90 182,00	1792189,00
Sof foyda	2620071,00	1604577,00	5261983,00	7608990,00	1548923,00	330946,00
Sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi	17675081,00	19598872,00	10381281,00	10371819,00	12472534,00	3908589,00

S.Q. Islombekov nomidagi "O'zkimyofarm" AJ uzoq yillar davomida aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlab kelayotgan tashkilotlardan hisoblanadi. Uzoq muddatli investitsiyalar 2018-yilda 2017-yilga nisbatan 26 barobar kamayib, 2020-yilgacha shu ko'rsatkichni saqlab qolgan. Ammo, 2021-yildan boshlab 7 milliard miqdorda uzoq muddatli xorijiy investitsiyalar kiritilib buning natijasida, o'rnatish uchun uskunalarga ajratilgan xarajatlar 2020-yilga nisbatan 35 million so'mga ortgan. Ishlab chiqarish jarayonidagi uskunalarning eskirish qiymati yuqoriligi sof foydaning pasayishiga sabab bo'lgan.

Har ikkala korxonaning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini hisob kitoblar asosida jadval holiga keltirildi. Ushbu hisob kitoblar natijasi har ikkala aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari asosida baholash imkonini taqdim etadi.

## 3-jadval.

**S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” va “Samarqand dori-darmon”  
AJlarining taqqoslama moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili**

Korxonalar raqobatbardoshligini baholovchi ko‘rsatkichlar	Formula	S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyatining hisoblangan qiymati	“Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatining hisoblangan qiymati
Bozor ulushi	$MS = \left(\frac{RC}{TC}\right) * 100\%$	3,8%	3,06%
Korxonaning operatsion samaradorligi	$R = \frac{T^s}{X^s}$	1,46	1,16
Yalpi foyda marjasi	$GPM = \left(\frac{GP}{TR}\right) * 100\%$	31,43%	14,17
Investitsiyalar ning rentabelligi	$ROI = \left(\frac{NP}{TI}\right) * 100\%$	4,2%	5,02%

*Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.*

Hisob-kitoblarimizga ko‘ra, bozor ulushi ko‘rsatkichi S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyatida 3,8 foizga teng bo‘lib, “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatining bozor ulushidan 0,8 foizga ko‘proq. Korxonaning operatsion samaradorligi borasida ham “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyati 1,46 ko‘rsatkich bilan “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatiga qaraganda raqobatbardosh deb ayta olamiz. Yalpi foyda marjasi bo‘yicha ham yuqori foiz ko‘rsatkichlari 31,43 foiz bilan “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyatida yuqori. Birgina investitsiyalarning rentabellik darajasini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichda “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati 5,02 foiz bilan ustunlikka ega bo‘lib, “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyati 4,2 foizni tashkil etgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholashga imkon beradi. Ammo farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini kompleks baholay olmaydi. Chunki raqobatbardoshlik – bu mahsulot sifati, innovatsiya, marketing, mijozlar ehtiyojini qondirish va ta‘minot zanjiri samaradorligi va boshqalar kabi bir qator omillarni o‘z ichiga olgan yanada keng qamrovli tushuncha. Shuning uchun kompaniyaning raqobatbardoshligini baholash uchun korxonaning tashqi va ichki omillarining kompleks tahlillari talab etiladi.

Tadqiqot doirasida farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini o‘lchash uchun korxonaning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, innovatsion, logistik, huquqiy va ekologik tomonlarini hisobga olgan holda Global raqobatbardoshlik indeksi asosida quyidagi farmatsevtika korxonalarini raqobatbardoshligini baholovchi shkala ishlab chiqildi. Ushbu shkala quyidagi 7 xil mezon orqali baholanadi. Har bir kriteriyaga 1-10 ball oralig‘ida baho berilgan.

**Shkala nomi: Farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshlilik darajasini kompleks baholovchi shkala**

Farmatsevtika sanoati korxonalari raqobatbardoshlilik darajasi shkala bo'yicha sohadagi muammolarning ta'sir darajasini aniqlashga qaratilgan, farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshlilikiga baho beruvchi kompleks-iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, innovatsion, logistik, huquqiy va ekologik ko'rsatkichlari asosida baholash shkalasi ishlab chiqildi. Bu esa farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

$$0 < K_{raq} \leq 10$$

Shkala natijalariga ko'ra:

$0 < K_{quyi} \leq 5$  oraliqda past darajadagi raqobatbardosh,

$5 < K_{orta} \leq 7$  oraliqda o'rta darajadagi raqobatbardosh,

$7 < K_{yuqori} \leq 10$  oraliqda yuqori darajadagi raqobatbardosh farmatsevtika korxonasi deb xulosa qilish imkonini beradi.

Shkala quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

**1. Tadqiqot va innovatsiyalar (Research and Innovation – RI)**

- kompaniyaning tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalarini baholash;
- kompaniyaning innovatsion faoliyati va olingan patentlar soniga ko'ra baholash.

**2. Bozor ulushi (Market size – MS):**

- korxonaning bozor ulushini hisoblash asosida baholash:

$$MS = \left( \frac{RC}{TC} \right) * 100\%$$

Bu yerda:

MS – korxonaning bozor ulushi;

RC – korxonaning chakana savdo hajmi;

TC – bozordagi chakana savdoning umumiy hajmi.

- brendning tan olinishi va obro'sini ham hisobga olish lozim.

**3. Normativ muvofiqlik (Regulatory Compliance – RC):**

- xalqaro sifat ko'rsatkichlarini bildiruvchi standartlar: GMP, GLP, GCP, GDP, GPP, ISO

**4-jadval.**

**GxP turlari**

Good Manufacturing Practice GMP	Good Laboratory Practice GLP	Good Clinical Practice GCP	Good Distribution Practice GDP	Good Storage Practice GSP	Good Pharmacy Practice GPP
--	---------------------------------------	-------------------------------------	---	------------------------------------	-------------------------------------

– milliy normativ standartlar: Muvofiqlik sertifikat, milliy GMP sertifikatlari asosida sifat nazorati va kafolat choralarini baholash.

**4. Moliyaviy ko'rsatkichlar asosida (Financial Performance – FP):**

- operatsion samaradorlik:  $R = \frac{T^s}{X^s}$

Bu yerda:

$R$  – tanlangan korxonaning operasion samaradorligi,

$T^s$  – tanlangan korxonaning tushumi,

$X^s$  – tanlangan korxonaning ishlab chiqarish va sotish xarajatlari.

–yalpi foyda marjasi:  $GPM = \left(\frac{GP}{TR}\right) * 100\%$

Bu yerda:

GPM – Yalpi foyda marjasi;

GP – yalpi foyda;

TR – Umumiy/jami daromad.

–investitsion rentabellik:  $ROI = \left(\frac{NP}{TI}\right) * 100\%$

Bu yerda:

ROI – Investitsiyalarning rentabelligi;

NP – sof foyda;

TI – jami investitsiya.

#### 5. Global integratsiya (Global integration – GI):

–xalqaro hamkorlik aloqalari

–eksport va import

#### 6. Ta'minot zanjiri samaradorligi (Supply Chain Efficiency – SCE):

Kompaniyaning ta'minot zanjirining mustahkamligi va samaradorligini baholash.

#### 7. Ekologik mas'uliyat (Environmental Responsibility – ER):

–korxonaning barqarorlik va ekologik toza amaliyotga sodiqligini baholash.

–korxonaning ekologik ta'simi kamaytirish bo'yicha harakatlarni baholash.

“Samarqand dori-darmon” AJ 5<5,46≤7 o'rta darajadagi raqobatbardosh farmatsevtika korxonasi deb xulosa qilish imkonini berdi.

Korxonalarining farmatsevtika raqobatbardoshlik kriteriyalari asosidagi yig'ilgan past ballaridan korxonaning zaif nuqtalarini rivojlantirishga qaratilgan startegik chora-tadbirlar olib borishi, kelajakda yuqori darajadagi raqobatbardosh farmatsevtika korxonasiga aylanishiga imkoniyat yaratadi. Investorlar va hamkorlarning investitsion aloqalarini kuchaytirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Farmatsevtika raqobatbardoshligi shkalasi turli xil muhim omillarni hisobga olgan holda farmatsevtika korxonasining raqobatbardoshligini yaxlit ko'rinishini beradi. Bu manfaatdor tomonlarga kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, strategik qarorlar qabul qilish va vaqt o'tishi bilan korxonaning faoliyatini kuzatish imkonini beradi.

## 5-jadval.

**S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” va “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatlarining farmatsevtika raqobatbardoshlik shkalasi asosida olingan ko‘rsatkichlari**

№	Ko‘rsatkich nomi	S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyati		“Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati	
		Hisoblangan qiymat	Berilgan ball	Hisoblangan qiymat	Berilgan ball
1	Tadqiqot va innovatsiyalar - RI		8		5
2	Bozor ulushi-MS:	3,8%	5	3,06%	4
Normativ muvofiqlik-RC					
3	GMP	-	0	+	1,25
	GDP	-	0	+	1,25
	GLP	-	0		
	GCP	-	0		
	GPP	-	0		
	ISO	9001:2008	1,25	9001:2009	1,25
	Milliy: muvofiqlik sertifikat	O‘zst	1,25	O‘zst	1,25
	Milliy GMP sertifikat	+	1,25	+	1,25
Moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida-FP					
4	Operatsion samaradorlik	1,46	5	1,16	4
	Yalpi foyda marjasi	31,43%		14,17%	
	Investitsion rentabellik:	4,2%		5,02%	
5	Global integratsiya-GI	-	5	-	4
6	Ta‘minot zanjiri samaradorligi-SCE	-	0	+	10
7	Ekologik mas‘uliyat-ER	+	10	+	5
<b>Jami</b>			<b>36,75</b>		<b>38,25</b>

*Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.*

Yuqoridagi kriteriyalar asosida S.Q.Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” va “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini taqqoslama jadvali keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida jami yig‘ilgan ballar qo‘shiladi va umumiy kriteriyalar soniga bo‘linadi.

Shkalada barcha kriteriyalar soni 7 tani tashkil qilgani bois jami yig‘ilgan ballar 7 ga bo‘linadi. S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyati raqobatbardoshlik kriteriyalari uchun jami yig‘ilgan ballar 36,75 ni tashkil etgan (5-jadvalga qarang).

Farmatsevtika raqobatbardoshlik shkalasi =  $(RI+MC+RC+FP+GI+SCE+ER)/7$   
S.Q.Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” AJ uchun hisoblangan qiymat:  $FRSH=(8+5+3,75+10+0+10)/7=5,25$  ballni tashkil etdi. Demak, korxonada  $5 < 5,25 \leq 7$  o‘rta darajadagi raqobatbardosh hisoblanadi.

“Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati uchun hisoblangan qiymat:  $FRSH=(5+4+6,25+8+0+10+5)/7=5,46$



#### 4. Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, farmatsevtika sanoati yuqori raqobatbardosh va dinamik muhitda ishlaydi, korxonalar raqobatbardosh pozitsiyalarini doimiy ravishda baholashlari va kuchaytirishlari kerak. Innovatsiyalar, mahsulot sifati, bozorga kirish, moliyaviy ko'rsatkichlar, tartibga rioya qilish, strategik sheriklik va barqarorlik amaliyoti kabi turli yo'nalishlarni qamrab olgan ushbu tarmoq ichidagi raqobatbardoshlikni baholash mezonlarini har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiq. Tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish, mahsulot sifati va samaradorligiga e'tibor berish, bozorga kirish va tarqatish tarmoqlarini kengaytirish, oqilona moliyaviy boshqaruv, tartibga solish standartlariga rioya qilish, malakali ishchi kuchini yetishtirish, strategik sheriklik aloqalarini rivojlantirish va barqaror biznes amaliyotini birlashtirish farmatsevtika sanoatida muvaffaqiyatli raqobatbardoshlik strategiyasining muhim elementlari hisoblanadi.

Farmatsevtika sanoatida raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalari, biofarmatsevtika, tele tibbiyot va shaxsiy tibbiyot kabi farmatsevtika sanoatining kelajagini shakllantiradigan rivojlanayotgan tendensiyalar farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini baholashdagi ta'sirini o'rganish kelajakda sanoatning global sog'liqni saqlash natijalarini yaxshilash va aholining farovonligini oshirishni qo'llab-quvvatlaydi. Sanoat rivojlanishda va yangi muammolarga duch kelishda davom etar ekan, farmatsevtika korxonalari hushyor, moslashuvchan va innovatsion bo'lib qolishlari shart.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son farmoni
2. Sorvirov B. V., Baranov A. M. Raqobat nazariyasi: darslik 65 bet / Baranov A. M. – M.: integratsiya, 2014.
3. Fridrix A. Xayek The Meaning of Competition. olume (Issue) 13(2),359–372 p,May 2016
4. Фатхутдинов, Р. А. Стратегический маркетинг / Р. А. Фатхутдинов. - СПб.: Питер, 2008. - 368 с;

Copyright © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

